

## **KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO`LAJAK MUTAXASSISLARNI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI**

**Sultonova Nilufar Raxmatullayevna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Sirtqi bo`lim Maktabgacha va boshlang`ich  
yo`nalishlarida masofaviy ta`lim kafedrası  
stajyor-o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kreativlikning mazmun-mohiyati, bo`lajak mutaxasislarning ta`lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi, talabalarni kreativ fikrlashga o`rgatish hamda kreativ yondoshuv asosida o`z-o`zini rivojlantirishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, bo`lajak mutaxasislarining kreativligiga oid ma`lumotlar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** kreativ yondoshuv, potensial kreativlik, faoliyatdagi kreativlik, o`z-o`zini rivojlantirish, bo`lajak mutaxasislar, ijodkorlik.

## **THINKING OF FUTURE SPECIALISTS BASED ON A CREATIVE APPROACH DEVELOPMENT BENEFITS**

**Sultonova Nilufar Rakhmatullayevna**

Jizzakh State Pedagogical University  
External department Pre-school and primary school  
department of distance education  
intern-teacher

**Abstract:** In this article, the essence of creativity, the creative approach of future specialists to educational activities, the scientific and theoretical foundations of teaching students to think creatively and improving self-development based on a creative approach, the creativity of future specialists information is highlighted.

**Key words:** creative approach, potential creativity, creativity in activity, self-development, future specialists, creativity.

## **МЫШЛЕНИЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА ПРЕИМУЩЕСТВА РАЗВИТИЯ.**

## Султонова Нилуфар Рахматуллаевна

Джизакский государственный педагогический университет

Заочное отделение Дошкольная и начальная школа

отдел дистанционного образования

стажер-преподаватель

**Аннотация:** В данной статье раскрыты сущность творчества, творческий подход будущих специалистов к учебной деятельности, научно-теоретические основы обучения студентов творческому мышлению и совершенствования саморазвития на основе творческого подхода, информация о творчестве будущих специалистов. выделено.

**Ключевые слова:** творческий подход, творческий потенциал, творчество в деятельности, саморазвитие, будущие специалисты, креативность.

Jamiyatning yangilanishi ta'lim-tarbiya tizimini o'zgarishini, unga yangicha yondoshuv hamda yangicha munosabatni talab qiladi. Bo'lajak mutaxasislarga sifatli ta'lim va tarbiya berish, bilim, ko'nikmalarini har tomonlama egallashlariga, kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxasisi bo'lishlarida hamda o'quv fanlarini o'zlashtirib borishlariga yengillik yaratish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash va ta'limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta'limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 9 avgustdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogika yo'nalishlarida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183-son qarori, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-

son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Aksenova, A.V.Morozov, D.V.Chernilevskiy, N.Veraks, N.A.Alekseev, Yu.K.Kruglova, K.G. Krechetnikov kreativ yondashuv asosida ta‘lim sifat va samaradorligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ta‘lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning omillari M.M.Zinovkina, A.V.Morozov, D.B.Chernilevskiy, V.N.Drujinin va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, ijod qilishning psixologiya xususiyatlariga qaratilgan konsestual nazariyalar Y.A.Ponomarev, A.N.Leontev, A.V.Morozovlar tomonidan yaratilgan. Ijod mezonlari, uning psixologik mehanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilangan. O‘tkazilayotgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan mutaxasislarni kreativ yondoshuv asosida o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirish, ularni samaradorligini pedagogik tajribaga asoslash zarurati mavjud. Ta‘lim sifatini va samaradorligini oshirish, birinchi navbatda tarbiyachi – pedagoglarning mahoroti va ularning ta‘lim faoliyatlariga mas‘uliyat bilan yondoshishiga bog‘liq albatta. Buning uchun

tarbiyachi – pedagoglar mashgʻulotlar jarayoniga, markazlarda ishlashga va oʻrganilayotgan yangi bilimlarni bolalarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy – kreativ yondoshgan holda uyushtirishi lozim. Tarbiyachi oʻz oldiga oʻzi tarbiyalayotgan bolalarni maktab taʼlimiga sifatli tayyorlashni maqsad qilib qoʻyar ekan, buning uchun avvalo mashgʻulotlarni maqsadini aniq belgilab olishi va bilish jarayonini tashkil etishda sifat oʻzgarishlariga erishishni nazarda tutishi kerak. Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga turli noanʼanaviy usullar asosida taʼlim berish 6-7 yoshli bolaning maktab taʼlimiga sifatli tayyorgarligining samarali kechishiga koʻmaklashadi. Noanʼanaviy usullar bilan tashkil etilgan mashgʻulotlar bolalarning qobiliyatlarini sayqallaydi va qiziqishlarini uygʻotib, mashgʻulot mobaynida zerikish va toliqishlarsiz ijodiy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa tayyorlov guruhi bolalarida ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish juda ahamiyoti kattadir. Farzandlarimizni kelajakda qaysi kasbni egallashidan qatʼiy nazar oʻz kasbini mahorat bilan egallashi uchun unga matematik bilimlar zarurdir. Shu boisdan ham Yurtimiz ertasi boʻlgan farzandlarimizning baxtli kelajagi uchun qaygʻurish, har tomonlama yaʼni, intellektual, jismoniy, estetik, aqliy, sogʻlom avlodni tarbiyalashga intilish har bir maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisining ustuvor maqsadi boʻlsagina ertamiz egalari boʻlgan bolajonlarimizni buyuk shaxsiyat egalari qilib ulgʻaytira olishimiz mumkinligini tushungan tarbiyachi oʻz oldiga qoʻygan maqsadini tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida maʼlum darajada hissasini qoʻshish bilan bajara oladi desak adashmaymiz. tayyorlov guruhi bolalarini maktab taʼlimiga sifatli tayyorlashda matematika mashgʻulotlarini turli xil interfaol usullardan, xususan, ertaklar, qisqa hikoyalar, harakatli oʻyinlar, arifmetik topshiriqlar, matematik savollar, jamoa boʻlib shugʻullanish, juftliklarda ishlash, masala tuzish, tushuntirish, tetiklashtiruvchi mashqlar, matematik bilimlarni mustaxkamlash uchun oʻyinlar bilan tashkil qilinsa taʼlimiy jarayonlar mazmunli boʻladi va bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida

xizmat qiladi. Yurtimiz ertasi bo'lgan farzandlarimizning baxtli kelajagi uchun qayg'urish, har tomonlama ya'ni, intellektual, jismoniy, estetik, aqliy, sog'lom avlodni tarbiyalashga intilish har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ustuvor maqsadi bo'lsagina ertamiz egalari bo'lgan bolalarimizni buyuk shaxsiyat egalari qilib ulg'aytira olishimiz mumkinligini tushungan tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan maqsadini tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida ma'lum darajada hissasini qo'sha oladi, buning uchun albatta bo'lajak mutaxassislarimiz har tomondan ya'ni, ijodiy, pedagogik, aqliy va axloqiy qolaversa estetik tomonlardan ham mohir bo'lishi, har bir pedagogik jarayoniga qattiq tayyorgarlik ko'rib, kunlik faoliyatlariga o'zgacha noan'anaviy, kreativ tomonlama yondoshib ishlamo'g'i lozim deb hisoblaymiz. Shundagina biz ertangi yorug' istiqbolimizdan umid qilsak arziydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni 23.09.2020-yil, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining " Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
3. Kamoldinov M, Vaxobjonov B, Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. T.: Talqin. 2010 y. b-128.
4. Xasanboyev J.Y. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma.- T., "Fan".2006
5. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2009, b-270.
7. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. Talabalarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDPU, 2006.
8. А. В. Морозов, Креативная педагогика и психология: учебное пособие. – М.: Академический Проект. 2004. 2-е изд., испр. и доп. – 560 с.

9. K.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.Qodirov. "Technical creativity and design". - Т.: "ТДПУ", 2010. -180 б.
10. 2.Sh.Sharipov, N.Muslimov. "Technical creativity and design". - Т.: 2011. – 144 б.